

Hurmatli xonimlar va janoblar!

“O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik kompaniyasi nomidan va shaxsan o‘z nomimdan **2026-yil 12-14-may kunlari** Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan **O‘zbekiston xalqaro energetika haftaligi – UEW 2026**da ishtirok etishga taklif qilish sharafiga muyassarman.

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda uglevodorod xomashyosi sanoat tarmog‘ining barqaror ishlashi, aholi hayotini ta‘minlashda muhim o‘rin tutishda davom etmoqda.

Zamonaviy sharoitda uglevodorodlarni qidirish va qazib olish usullarini ekologik toza usullari va uglerod izini kamaytirishga ustuvor ahamiyat qaratgan holda takomillashtirish ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasida energetika va neft-gaz kompleksi korxonalarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro energetika haftaligi – UEW 2026 **“Yangi energetika: Innovatsiyalar. Barqarorlik. Mintaqaviy hamkorlik”** shiori ostida o‘tkaziladi.

Tadbir dasturiga quyidagilar kiradi:

- **«O‘zbekiston neft va gazi – OGU 2026» 28- Xalqaro ko‘rgazmasi va anjumani;**
- **«Energetika, energiya tejash, atom energetikasi, muqobil energiya manbalari» – Power Uzbekistan 2026» 19- Xalqaro ko‘rgazmasi;**
- **“Yashil energiya tejovchi texnologiyalar – GETCA 2026” ixtisoslashtirilgan bo‘limi;**
- **6-Xalqaro energetika anjumani.**

Keng ko‘lamli xalqaro ko‘rgazmalarining ilmiy-amaliy anjumanlar kun tartibi bilan uyg‘unligi va yetakchi jahon ekspertlarining ishtiroki sohaning dolzarb muammolarini samarali muhokama qilish va ularni hal etishning istiqbolli yo‘llarini aniqlash imkonini beradi.

Tadbir **Iteca Exhibitions** xalqaro ko‘rgazma kompaniyasi bilan hamkorlikda tayyorlanmoqda. Ishonamanki, bo‘lajak tadbir ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlash, yangi hamkorlar topish va energetika sohasida ilg‘or yechimlarni ilgari surish uchun muhim platformaga aylanadi.

Sizni va kompaniyangiz vakillarini **Xalqaro energetika haftaligi – UEW 2026** ishtirokchilari qatorida ko‘rishdan mamnun bo‘lamiz, bu shubhasiz energetika sohasini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga muhim hissa qo‘shadi.

**Eng ezgu tilaklar ila,
Boshqaruv raisi**



B.Sidiqov